

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIM VAZIRLIGI**

**SAMARQAND VILOYATI PEDAGOGLARNI YANGI
METODIKALARGA O‘RGATISH
MILLIY MARKAZI**

D.J.NURMANOVA

Tetiklashtiruvchi o‘yinlar
(Boshlang‘ich ta’limda va barcha turdagi
o‘quv mashg‘ulotlari uchun)

USLUBIY KO‘RSATMA

SAMARQAND - 2023

D.J.Nurmanova Tetiklashtiruvchi o‘yinlar (Boshlang‘ich ta‘limda va barcha turdagi o‘quv mashg‘ulotlari uchun). Uslubiy ko‘rsatma. 2023-yil. 32-bet.

Taqrizchilar: **M.Raximqulova** - Samarqand viloyati Pedagogika markazi Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta‘lim metodikalari kafedrasini mudiri, dotsenti

U.Butayeva - O‘zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti dotsenti

Ushbu uslubiy ko‘rsatma boshlang‘ich ta‘lim va barcha turdagi o‘quv mashg‘ulotlarida foydalanish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda ta‘lim jarayonidagi barcha ishtirokchilarda “4 K” modelini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, unda dars mashg‘ulotlarida o‘quvchilarni tetiklikka undovchi va diqqatni jamlovchi mashqlar, hissiy zo‘riqishni bartaraf etishga mo‘ljallangan psixologik treninglar hamda mantiqiy fikrlash kompetentsiyasini optemalashtiradigan amaliy mashg‘ulotlar yoritilgan.

Uslubiy ko‘rsatma uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi tinglovchilari, oliy va o‘rta maxsus ta‘lim tizimidagi talabalarga, umumta‘lim maktab o‘qituvchilari, maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyachilari, ota-onalar hamda sinf rahbarlari uchun mo‘ljallangan.

Ushbu uslubiy ko‘rsatma Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi Ilmiy Kengashining 2023-yil 26-oktabr 5- sonli qaroriga binoan nashrga tavsiya etilgan.

KIRISH

Bugun butun dunyoda zamonaviy axborot texnika asri bo‘lganligi tufayli insoniyatning bu aqlli texnologiyalar tobe bo‘lib qolishlaritobora otrib bormoqda. Buni oldini olish maqsadida ko‘plab ishlar amalga oshrilmoqda. Jumladan ta‘lim sohasida ham ayniqsa dars jarayonlarida va darsdan tashqari vaqtlarda ham o‘quvchilarimizni bu texnologiyalarning foydali va zararli tomonlari haqida aytib o‘tish lozim. O‘quvchilarga ma‘lumot berishda shunchaki nazariy ma‘lumotlar bilan emas balki aniq manbalar va amaliy tajribalar asosida ma‘lumotlarimizni izohlab bersagina o‘quvchilarimizda ijobiy tasavvurlar hosil qilishga muvofaq bo‘lamiz.

Jahon mamlakatlarida ta‘lim olishning maqbul tomonlarini yanada takomillashtirilmoqda. Jumladan vatanimizda ta‘lim sohasi ijtimoiy taraqqiyotning asosiy sohalaridan biri sifatida e‘tirof etilganligi sababli ham ta‘lim sohasi davlat siyosatida ham ustuvor tamoyil sifatida e‘tibor qaratildi. Davlat siyosati darajasida ishlab chiqilgan asosiy tamoyillarga og‘ishmay amal qilishga e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **2022-yil 11-maydagi PF-134-son Farmoni**, **2022-yil 21-iyundagi PQ-290-son qarorining** 11-bandi ijrosini ta‘minlash, shuningdek, maktab ta‘limiga **ilg‘or xalqaro tajribalar** asosida ishlab chiqilgan **Milliy o‘quv dasturi** va **zamonaviy darsliklarni** amaliyotga joriy etildi. Bugungi jamiyatning tezkor rivojlanishi, rivojlanish jarayonida ta‘lim tizimida Yangi avlod darsliklari amaliyotga joriy qilingandan so‘ng dars mashg‘ulotlarida o‘quvchilarni mantiqiy, kreativ va kritik fikrlashga undovchi topshiriqlar o‘quvchilarimizni biroz o‘ylantirib qo‘yishga undamoqda.

«O‘zingni bilsang – olamni bilasan» degan edi buyuk yunon faylasufi Suqrot. Inson hamma vaqt, kundalik hayotda ham, ilmiy faoliyatda ham fikr yuritadi. Ammo mantiq ilmini bilmasdan turib to‘g‘ri fikr yuritish mushkul.

Mantiq olamdagi qonuniy, zaruriy bog‘lanish va aloqalar, tartib va izchillik, tafakkurning ichki aloqadorligi, tadrijiy fikrlanishi, turli qarashlar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanishlarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, insonni hyech bir narsaga befarq bo‘lmay, sinchkov qarashga, har bir voqea-hodisaga xolis baho berishga, shu yo‘l bilan muntazam va izchil fikr yuritish va har qanday oqilona fikrni isbotlay bilishga

o'rgatadi. Mantiq ilmi qonun-qoidalarini atroflicha o'rganish va mustaqil fikr yuritish qobiliyatini rivojlantirish orqali amaliy hayot uchun kerakli xulosalar chiqarish, davr ruhini anglash, voqyea-hodisalarni haqqoniy tahlil qilish oson kechadi.

Mantiq ilmining ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati beqiyos. Zero, ilm-fan ildam rivojlanayotgan bir paytda ilmiy tadqiqotlar olib borish hamda ilmiy-nazariy tajribalar orqali to'plangan ma'lumotlarni samarali tahlil qilish mantiq ilmini mukammal bilishni taqozo etadi.

Bunday holatlarda o'quvchilarimizga ko'maklashish uchun esa o'qituvchisi yoki ota-onasi yordamga keladi. O'qituvchi va ota-onalarga yordamchi vosita sifatida mazkur uslubiy ko'rsatma muayyan darajada xizmat qiladi.

O'QITUVCHI O'TKAZADIGAN DARS-MASHG'ULOTLARIDA FOYDALANISH

Dunyoda va yurtimizda bugungi keskin raqobatbardosh, ma'naviy jihatdan yetuk salohiyatga ega, yuksak ma'naviyatli, kasbiy kompetentligi yuqori pedagog xodimlarga bo'lgan ehtiyoj yuqori. Shu sababdan o'qituvchi dars mashg'ulotlarini boshlandan oldin yoki dars davomida o'quvchilarning diqqatini bir joyga to'plash, tetiklashtirish, kreativ fikrlash kompetentsiyalarini optemallashtirish maqsadida quyida berilayotgan tavsiya va amaliy mashg'ulatlardan foydalanish mumkin.

Mantiq ilmi hiyla «qiyin» fanlar qatoriga kiradi. Shu bois uni muvaffaqiyatli o'zlashtirishning yo'li olingan nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar bilan mustahkamlashdir. Ushbu qo'llanma bu borada Sizning eng yaqin yordamchingiz bo'ladi. Unda berilgan masalalarning biri oddiy bo'lsa, boshqasi chuqur fikr yuritish orqali, yana biri esa tajriba asosida yechimini topadi. Tafakkur masalalarini yechish uchun esa mantiqiy fikrlash, mantiq ilmi qoidalaridan xabardor bo'lish lozim bo'ladi.

Fikrlash – insonning aniq dalillarni kuzatib, umumiy xulosa chiqarishga intilish, voqyea-hodisalarning sabablarini aniqlash va kelajakni oldindan ko'ra bilishdan boshlanadi.

Fikrlash jarayonlari quyidagicha:

1. Avvalo hal etilishi lozim bo'lgan muammo aniqlab olinadi. Chunki muammo bo'lmasa odam hech narsa haqida o'ylamaydi. Hal etilishi lozim bo'lgan masalani yechish uchun uning mohiyatini to'la tushunish, masala shartlarini tahlil qilish, nima berilgan va nimani topish kerakligi haqida mulohaza yuritiladi.

2. Masalani yechish uchun zarur bo'lgan bilimlar (qoida, dalil, qonun, teorema, ta'rif) ishga solinadi.

3. Gipoteza, ya'ni taxminlar o'rtaga tashlanadi, taxminlardan eng to'g'risi tanlab olinadi.

4. Masala yechiladi, natija tekshiriladi.

Aql-farosat murakkab nazariy va amaliy muammolarni hal etishdagina emas, balki kishining juda oddiy, odatdagi kundalik ishlarida ham namoyon bo'ladi. Bu jihatdan yunon faylasufi Demokrit hayotidan olingan voqeya ibratlidir. Kunlarning birida Demokrit juda ustalik bilan bog'langan katta bir boylam o'tinni sira qiynalmasdan ko'tarib ketayotgan yigitni uchratib qoladi. Demokrit yigitdan o'tinni sohib tashlashni va yana ilgari gidek qilib taxlab bog'lashni iltimos qiladi. Yigit uning iltimosini bajaradi va epchilik bilan o'tinni taxlab bog'laydi. Shunda Demokrit «Hoy yigit, sen shunchalik zo'r aql-farosat egasi ekansanki, yuksak ishlar bilan shug'ullanmog'ing lozim» deydi va uni shogirdlikka oladi. Keyinchalik o'tinchi yigit mashhur faylasuf bo'lib yetishadi. U Protagor edi.

Fikrlash insonlarni dunyoqarashida o'ziga xos xususiyatlar takomillashadi, ya'ni fikrning chuqurligi, kengligi, o'tkirligi, tanqidiyligi, fikrlash tezligi va mustaqilligi muhim ahamiyatga egadir.

***Eslatma:** Ushbu ko'rsatmadan foydalanayotganingizda bu yerda berilgan tavsiya va amaliy treninglarni atrof-muhit, shart-sharoit va ishtirokchilarning yoshi hamda xarakter temteramentlariga ko'ra, ishtirokchilarning jinsiga ko'ra, ishtirokchilarning soniga ko'ra ham o'zgartirishingiz va foydalanishingiz mumkin. Tavsiya etilayotgan mashg'ulotlarda agar aholida e'tibor qaratilishi lozim holatlar bo'ladigan bo'lsa sizga **qo'shimcha eslatmalarni** ham berib o'tiladi.*

Har sohaga oid savollar (javoblari bilan)

1. O‘zbekiston Respublikasining Davlat Madhiyasi matnida “tinchlik” so‘zi necha marotaba ishlatilgan?

1 marta. 3 naqoratning 3 qatoridagi 3 so‘zida ishlatilgan.

2. “O‘zbekiston” so‘zida nechta harf bor?

10 ta.

3. Mevalar g‘arq pishgan fasl qaysi?

Yoz, kuz.

4. 13 yoshida mashxo‘r bo‘lgan tabib.

Abu Ali ibn Sino.

5. Bahorning eng birinchi guli.

Boychechak.

6. Osmon so‘zining sinonimlari.

Samo, fazo, koinot, falak.

7. Ham podsho, ham olim, ham buyuk munajjim.

Mirzo Ulug‘bek.

8. Oy taqvimi bo‘yicha Saraton qaysi oylarni o‘z ichiga oladi?

Iyun-iyul.

9. Tuproq bilan oziqlanadigan jonivor nima?

Chuvalchang.

10. Inson tanasining eng sovuq qismi.

Burun.

11. Bug‘doy qaysi faslda pishadi?

Yozda.

12. Butunninf to‘rtidan bir qismi?

Chorak.

13. Guldon shaklidagi sport sovrini?

Kubok.

14. O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrogida necha xil rang mavjud va ularni ayting?

4 xil rang: oq, moviy, yashil, qizil.

15. 7 yoshida mashxur bo‘lib yetishgan alloma?

Alisher Navoiy.

16. Apelsinlik yaxna ichimlik.

Fanta.

17. Ming yil necha asrga teng.

10 asrga.

18. Taniqli bolalar yozuvchisi Xudoyberdi To‘xtaboyev qayerda tug‘ilgan?

Farg‘ona viloyati.

19. Oilada eng kichik farzandni nima deb ataydilar?

Kenja.

20. Qushlar orasida eng tez chopadigan qush qaysi?

Tuyaqush.

21. Quyosh atmosferadida suv qanday holda saqlanadi?

Bug‘ holatida.

22. Qaysi jonzod ko‘zguda o‘zini taniy oladi?

Maymun.

23. Qaysi harf deyarli dunyoning barcha alifbolarida bir xil yozilishi bilan rekord o‘rnatgan?

O harfi.

24. Birinchi bo‘lib qaysi hayvon xonakilashtirilgan?

It.

Qiziqarli mantiqiy savollar (javoblari bilan)

1. Inson organizmidagi eng shir va eng achchiq a'zo.

Til.

2. Daraxtning shoxida qarg'a o'tiribdi. Qarg'ani cho'chitib yubormasdan shoxni arralash uchun nima qilish kerak?

Qarg'aning o'zi uchib ketishini kutish.

3. Undan qanchalik ko'p olaversangiz, u shunchalik kattalashib boraveradi. U nima?

Chuqur.

4. Qafasda 3 ta quyon bor edi. Uchta qizcha ularga bittadan quyon berishlarini so'rashdi. Ularga so'rganlaridek bittadan quyon berildi. Lekin baribir qafasda bitta quyon qoldi. Buni qanday tushuntirish mumkin?

Qizchalarning biriga quyon qafasi bilan birga berilgan.

5. Kichkina, kulranggina, filga o'xshaydi?

Filning bolasi.

6. Merining otasining beshta qizi bor. Ularning ismlari Chacha, Cheche, Chichi, Chocho... Beshinchi qizining ismi nima bo'lishi mumkin?

Albatta Meri

7. Qaysi inson otni ham, filni ham hech bir qiyinchiliksiz ko'tarishga, ularni joyini o'zgartirishga qodir?

Shaxmatchi.

8. Nok osilib turibdi, lekin uni yeb bo'lmaydi. Lampochka emas?

Begonaning noki.

9. Otning "tufli"si.

Tuyog'i

10. Kishiga uch marta beriladi: birinchi ikki marta bepul, ammo uchinchi marta yoki undan keyin pul to'lash kerak bo'ladi. U nima?

Tishlar.

11. Shifokor bemorga 30 daqiqa oraliq bilan 3 ta ukol olishni belgiladi. Hamshira ukol qilishni soat 10:30 da boshlasa, bemor soat nechida ukollarni to‘liq olib bo‘ladi?

Soat 11:30 da, birinchisi 10:30 da, ikkinchisi 11:00 da, uchinchisi esa 11:30 da.

12. Qaysi yegulikni pishirishda qancha tuz sorsa ham, u sho‘r bo‘lib ketmaydi?

Qaynatilgan tuxumni.

13. Elektropoezd sharqqa tomon 80 km/soat tezlik bilan harakatlanmoqda. Shamol esa sharqdan g‘arbga qarab 15 km/soat tezlik bilan esmoqda. Poyezddan chiqayotgan tutun qaysi tomonga qarab harakatlanadi?

Elektropoezdlar tutun chiqarmaydi (albatta yong‘in chiqmasa).

14. O‘rdaklar suv ichishga qator bo‘lib ketayotgan edi. O‘rdaklardan biri oldinga qarab, 17 ta boshni ko‘rdi. Ortiga qarasa — 42 ta panja kelayotgan ekan. Jami nechta o‘rdak suv ichishga ketmoqda?

Javob: 39 ta. Oldinda 17 ta o‘rdak. Ortida esa 21 ta. Shuningdek boshini orqa-oldinga burgan o‘rdakning o‘zi ham.

15. Bir kishi olmalarni 500 so‘mdan sotib olib, ularni 300 so‘mdan sotardi. Bir muncha vaqt o‘tgach, u kishi millionerga aylandi. Buning sababi nimada?

U odam dastavval milliarder bo‘lgan.

16. Qanday holatda 3 ta yosh bola, 4 ta katta yoshli odam, 1 ta mushuk va 1 ta it bittagina soyabon tagida turib, yomg‘ir ostida nam bo‘lmaydi?

Yomg‘ir yog‘mayotgan bo‘lsa

17. Men suvman va suv yuzasida suzib yuripman. Men kimman?

Muz.

18. Nimani 10 daqiqadan ortiq ushlab turishning iloji yo‘q, garchi u o‘ta yengil bo‘lsa ham.

Nafasni.

19. Yo‘llari bor, yurib bo‘lmaydi,

Yerlari bor — ekib bo‘lmaydi,

Yam-yashil o‘tloq bor — yulishni iloji yo‘q,

Dengiz, daryo ko‘llari bor, ammo suvi yo‘q.

Bu nima?

Xarita.

20. Uchta toshbaqa sudralib bormoqda. 1-toshbaqa: mening ortimdan ikkita toshbaqa sudralib kelmoqda.

2-toshbaqa: mening oldimda ham, ortimda ham bittadan toshbaqa sudralib kelmoqda.

3-toshbaqa: mening oldimda ikkita toshbaqa, ortimdan esa bitta toshbaqa sudralib kelmoqda. Bu qanday qilib bo‘lishi mumkin?

Toshbaqalar aylana bo‘ylab sudralib yurishibdi.

21. Stol ustida ikkita tanga turibdi. Ularning jami qiymati 3 so‘m. Lekin ularning biri 1 so‘mlik tanga emas. Tangalar necha so‘mlik?

1 so‘m va 2 so‘mlik tangalar. Ulardan biri aniq 1 so‘mlik emas, lekin ikkinchisi 1 so‘mlik

22. Ko‘rganda quvonamiz, lekin baribir ko‘zimizni olib qochamiz?

Quyosh.

23. Ular qanchalik ko‘p bo‘lsa, vazni shunchalik kamayib ketaveradi?

G‘ovaklar

24. Uni chap qo‘l bilan ushlasa bo‘ladi, lekin o‘ng qo‘l bilan hech qachon ushlab bo‘lmaydi?

O‘ng qo‘lning tirsagi.

25. Stolning 4 ta burchagi bor. Shu burchaklardan birini kesib olib tashlasa, unda nechta burchak qoladi?

5 ta (stolni tasavvur qilib ko‘ring).

26. Mashxur sehrigar xonaning o‘rtasiga shisha qo‘yib, unga kira olishini aytdi. Bu qanday qilib mumkin?

Xonaga barcha kira oladi, shisha qo‘yish shart emas.

Kulguli va fikrlashni talab qiladigan mantiqiy savollar (javoblari bilan)

1. Bir shox, bir ko‘z, ammo karkidon emas.

Sigir burchakdan boshining yarimini chiqarib poylamoqda.

2. Umida qog‘ozga 86 sonini yozib, dugonasidan «ushbu sonni qog‘ozda hech narsani o‘chirmasdan, bo‘yamasdan va chizmasdan 12 ga oshira olasanmi» deb so‘radi. Dugonasi buni eplay oldi. Qanday qilib?

Qog‘ozni teskari qilish orqali, bunda 86 -> 98 ga aylanadi.

3. Yengil yoki og‘ir bo‘lishi mumkin. Lekin vaznga ega emas. Tez va asta bo‘ladi, ammo yugurishga, uchishga, suzishga ham qodir emas. U nima?

Musiq.

4. Choyni qaysi qo‘l bilan aralashtirish kerak?

Choyni qo‘l bilan emas, balki qoshiqcha bilan aralashtirish maqsadga muvofiq.

5. U sizga tegishli, ammo boshqalar undan sizga nisbatan ancha ko‘proq foydalanishadi. U nima?

Sizning ismingiz.

6. Kim o‘tirgan holda yuradi?

Shaxmatchi.

7. Siz mashinaga o‘tirdingiz va uni haydamoqchisiz, lekin oyoqlaringiz pedallarga yetmayapti. Bu holda nima qilish kerak?

Yo‘lovchi o‘rindig‘idan haydovchining o‘rindig‘iga o‘tish kerak.

8. U savol emas, lekin unga javob berish kerak.

Qo‘ng‘iroq yoki eshik jiringlashi.

9. Hamma narsani ko‘rayotganda uni ko‘rmaysiz.

Hech narsani ko‘rmaganda esa uni ko‘ra olasiz. U nima?

Qorong‘ulik.

10. Professor do‘stlarini o‘zining maxsus salati bilan mehmon qilishni niyat qildi.

Buning uchun unga: 3 ta bulg‘or qalampiri va huddi shuncha pomidor,

pomidorlardan ko‘ra kamroq, ammo piyozdan ko‘proq bodring kerak bo‘ladi.
Professor jami bo‘lib necha dona turli xil sabzavotlar ishlatadi?

9 ta.

MANTIQUIY SAVOLLAR

1. Nima uchun «*ko‘z bilan ko‘rgan yuz marta eshitgandan afzal*»?
2. Nima uchun «*qari bilganni pari bilmas?*»?
3. Yettita bir xil olmani sakkiz kishiga teng bo‘lish uchun nima qilish kerak?
4. Bir tushuncha bir vaqtda ham to‘g‘ri, ham noto‘g‘ri bo‘lishi mumkinmi?
5. Chinorning bo‘yini qanday qilib o‘lchash mumkin?
6. Bu binoning sakkiz eshigi bor. Har bir eshikning ortida sakkizta xonasi bor. Kirib xonalarni aylansangiz, ajib bir holni ko‘rasiz. Xonalarning ranglari mos ravishda biri oqqa, biri qoraga bo‘yalgan. Bu nima bo‘lishi mumkin?
7. Go‘sht tog‘ tepasida tez pishadimi yoki tog‘ etagidami?
8. Aql kirishi uchun aql tishi chiqishini kutib o‘tirish shartmi?
9. Olamda to‘rt narsa yo‘q. Ularni toping.
 1. *Osmonning ustuni.*
 2. ...
 3. ...
 4. ...
10. Istalgan sonni 10 ga ko‘paytirish uchun nima qilish kerak?
11. Quyidagi tushunchalarni qanday munosabat birlashtiradi?
 - uy – hovli – imorat*
 - xona – mehmonxona*
 - ishli – ishsiz*
 - g‘azab – jaholat*
 - ko‘ngil – yurak – dil*
 - osuda – tinch – tashvishsiz*
 - tojir – savdogar*
 - rashha – tomchi*

muqobil – teng – barobar
astrologiya – yulduzshunoslik
nafis – nozik – latif
komil – takomil – mukammal
sirli – ajib – mo'jiza
daryo – dengiz – okean

12. Ushbu she'rni mantiqiy tahlil qiling:

Asl bo'lmagin aslo, kamol shuning o'zidir,
Bor, unda mavh bo'l, visol shuning o'zidir.
Otmoq uchun kamon, o'q hozirlagan ey inson –
Sen undan uzoqdasan, o'lja shuning o'zidir.
«Biz jon tomiridan ham yaqinroqmiz» dedi U –
Sen qidirma yiroqdan, Yaqin shuning o'zidir.

13. Quyidagi tushunchalarning mazmun jihatdan qarama-qarshisini toping:

avval, dono, do'st, mard, baxt, sog'lom, erkin, kecha, hayot, hozir,
tinchlik, katta, sho'x, ochiq, chiroyli, toza, to'g'ri.

14. «U» shu qadar shirinki, totib ko'rging keladi, shu qadar achchiqki, tilingni kuydiradi. «U» nima bo'lishi mumkin?

15. Quyidagi iboralarda ifodalangan tushunchalarni izohlang:

Xamirdan qil sug'urgandek
Parvoyi falak
Daryodan tomchi

16. Hamma narsa uchun eng avvalo nima kerak?

17. Odam qancha ko'p qiziqsa, shuncha ko'p o'qiydi. Qancha ko'p o'qisa, shuncha ko'p biladi. Qancha ko'p bilsa, yashashi shuncha qiyin bo'ladi. O'ylab ko'ringchi, nima uchun?

18. Asaldan shirin, zahardan achchiq nima bo'lishi mumkin?

19. Mantiq ilmi sizga yolg'on va rost munosabatlarini o'rgatadi. Zero, haqiqat bilan yolg'onning jisman ko'rinishi mavjud bo'lib, ular orasida masofa ham

shu qadar qisqadir. O‘ylab ko‘ring-chi, yolg‘on va rostning ko‘rinishlari nimalarda aks etadi?

20. Oq dengizning «*Oq dengiz*» deb atalishiga sabab nima?

21. Bir savdogar o‘g‘lining savdodagi fahm-farosatini sinash uchun 500 so‘m pul berib, «*ham o‘zimiz, ham sigirimiz, ham tovug‘imiz uchun yemish bo‘ladigan narsa olib kel*» debdi. Ayting-chi, o‘g‘il nimalarni xarid qilgan bo‘lishi mumkin?

22. Nima uchun aynan taksi avtomobillariga shahmat belgisini qo‘yish rasm bo‘lgan? Ular shahmat ishqibozlarimi yoki?...

23. Bahorning ilk nafasi bodom gullari orqali seziladi. Lekin uning erta gullashi bog‘bonlar uchun xavotirli. Chunki sovuq ta‘sirida bodom gullari to‘kilib ketadi. Bog‘bonlar bodom barvaqt gullamasligi uchun ajoyib xiyla ishlatishgan. Bu esa bodomlarning hosili mo‘l bo‘lishiga zamin yaratgan. Xo‘sh, o‘ylab ko‘ring-chi, bog‘bonlar qanday xiyla ishlatishgan ekan?

24. Keksalar duo qilishganda «*To‘rt muchang sog‘ bo‘lsin*» deyishadi. «To‘rt mucha» nima?

25. «U» nima bo‘lishi mumkin?

Juda qadimiy chuqur o‘pdon, tubsiz,

Ne-ne inson yiqilib g‘arq bo‘ldi, esiz.

Faqat donolar o‘tdi, undan aql-la ipsiz,

Unga parvo qilmaganga hurmatlar cheksiz.

26. Tush payti. Qattiq jala quymoqda. 6 soatdan so‘ng quyosh nur sochib, havo ochilib ketishi mumkinmi?

Yuqorida berilgan mantiqiy savollarga mutloq to‘g‘ri javob haligacha topilmagan. Shuning uchun ishtirokchilar IQ darajasi, yoshi, qiziqishlari va xarakter temperamentlariga ko‘ra javob uchun bildirgan fikrlarini qabul qiling. shundan so‘ng ishtirokchiga nega aynan shu javobni berganligini izohini talab qiling. Shunda qolgan ishtirokchilar uchun berilgan javob nisbatan tushunarli bo‘lishini ta‘minlagan bo‘lasiz.

SINF RAHBARLARI SINF JAMOASIDAGI O‘QUVCHILARI BILAN O‘TKAZADIGAN DARS-MASHG‘ULOTLARIDA FOYDALANISH

Zamonaviy jamiyatning rivojlanish sur‘ati ota-onalar uchun tobora ko‘proq yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda, bu ko‘pincha yolg‘iz hal qilish juda qiyin. Maktabda va maktabda ishlaydigan xizmatlar paydo bo‘lgan muammolarni hal qilishda katta yordam beradi.

Sinf rahbari ota-onalar bilan yaxshi aloqani majburiy qo‘shma tadbirlar (seminarlar, aktsiyalar, viktorinalar va boshqalar) Metodikada sinf rahbari va o‘quvchining oilasi o‘rtasidagi hamkorlikning noan‘anaviy shakllarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Bularga quyidagi shakllar kiradi:

- * Ota-onalar kechalari
- * Individual maslahatlar
- * Guruh maslahatlari
- * Tematik maslahatlar
- * Aloqa daftarlarini yuritish
- * Treninglar
- * Ota-onalar tomonidan o‘tkaziladigan mavzuli davra suhbatlari.

Maktab va oila o‘rtasidagi hamkorlik maqsadli va uzoq muddatli mehnat natijasi bo‘lib, bu, eng avvalo, oilani, oilada bola tarbiyasi xususiyatlari va sharoitlarini har tomonlama va tizimli o‘rganishni nazarda tutadi. Pedagogik jarayon ishtirokchilarining o‘zaro hamkorligi rejalashtirilishi va tashkil etilishi kerak. O‘qituvchi va oila o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning mohiyati shundaki, har ikki tomon ham bolani o‘rganish, undagi eng yaxshi fazilatlarni ochish va rivojlantirishdan manfaatdordir. Shu maqsadda o‘quvchilarning ota-onalari bilan ishlashda ta’lim tizimidagi yangiliklar yoki dars jarayonlar haqida qo‘shimcha axborot berish eng yaxshi usullardan biridir. Bundan tashqari ota-onalar bilan sinf rahbarlari sinf jamoasidagi o‘quvchilarining ota-onalari bilan tashkil qilinadigan ota-onalar majlislari uchun amaliy va trening-mashg‘ulotlarida foydalanish tavsiya etiladi.

MEN KELDIM

Ushbu mashqni dars yoki trening mashg'ulotini boshlagandan so'ng ishtirokchilarning bor diqqat e'tiborini mashg'ulotlarga qaratib olish va ularni kreativ fikrlashga undaydigan mashq sifatida ishlatishingiz mumkin. Bu mashqda 3 ta savol o'qituvchi tomonidan dars (trening mashg'uloti) dagi ishtirokchilarga birin ketinlikda beriladi. Ya'ni bitta savolga avval hamma javob bering bo'ladi, keyin ikkinchi savol beriladi. Ikkinchi savolga ham javob berib bo'lingandan so'ng uchunchi savol beriladi. Ishtirokchilar har bir savolga javob berayotganda oldingi ishtirokchi aytib o'tmagan yangi va hattoki juda antiqa berilgan javoblari ham mumkin. Bunday javob berishlari ishtirokchilarda yanada diqqatni oshirishi uchun xizmat qiladi.

Savollar quyidagicha:

1. Bu dars mashg'ulotiga qanday transport vositasida keldingiz?
2. Nega aynan shu transport vositasini tanladingiz?
3. Agar bu transport vositasi bo'lmaganida yoki buzilib qolganda yana qanday boshqa transport vositasida kelgan bo'lar edingiz?

Yuqoridagi savollarga javob berish uchun namunaviy (taxminiv) javob varianti.

1. Men bu dars mashg'ulotiga **Uchar gilam**da keldim.
2. Men aynan shu **Uchar gilam**ni tanlaganimning sababi chunki u inson tilini tushunadi.
3. Agar bu **Uchar gilam** bo'lmaganida Zolushkaning **Qovoq aravasida** kelgan bo'lardi. Chunki u **Qovoq aravaga** bugungacha faqat Zolushka mingan. Men ham bu aravaga minsam, bu aravaga mingan ikkinchi inson bo'lardim.

Bu mashqni bajarish uchun 5-8 daqiqa yetarli. Ishtirokchilarning soniga ko'ra vaqt ko'p sarfanishi yoki ortib qolishi mumkin. Agar sizda vaqt ortib qoladigan bo'lsa, ushbu mashg'ulot haqida ishtirokchilarning ba'zilaridan shaxsiy fikrlarini so'rab, jamoa bilan tinglashingiz mumkin.

BESH BARMOQ



Bu mashq o'quvchilarni mavzuni qanchalik o'zlashtirganliklarini hamda o'quvchi o'z-o'zini baholashda ko'rgazmali usul sifatida fan o'qituvchilari, sinf rahbarlari yoki to'garak rahbarlari dars mashg'ulotlarida foydalanishlari mumkin.

Mashqni o'tkazish uchun har bir o'quvchi o'zining barmoqlarini rangli yoki oq qog'ozga chizib, kesib oladi. Oldindan tayyorlab olingan besh barmoqlarga o'qituvchi tomonidan tayyorlab kelingan savollarning javoblarini o'quvchilar yozadi. Shu beshta savollar o'quvchilarga birin-ketinlikda o'qib beriladi. O'quvchilar esa 5 ta savolga o'zlarining javoblarini bosh barmoqdan boshlab (qalam bilan) yozadi. Barcha o'quvchilar javobini yozib bo'lingandan so'ng, har bir o'quvchi o'zining barmoqchalarini ko'tarib turadi. O'qituvchi har bir savol javobini o'qiydi. O'quvchilar esa har bir barmoqda yozilgan o'zi yozgan javob bilan to'g'ri javoblarni solishtiradi. Agar o'quvchi qaysidir barmoqchaga javobni xato yozilgan bo'lsa, shu barmoqcha qayriladi. Shu tariqa o'quvchi 5 ta savollarning nechtasiga to'g'ri javob berganini o'zi tahlil qiladi.

Besh barmoq metodi uchun savollarni fan yuzasidan, darslikdagi bo'lim yuzasidan, o'tilgan mavzu yuzasidan, yangi mavzuni mustahkamlash uchun ham tanlab tayyorlash yoki qiziqarli ma'lumotlar asosida ham tayyorlash mumkin. Masalan biz namuna uchun qiziqarli ma'lumotlardan 5 ta savol tayyorladik.

1. Suv idishidagi yaroqlilik muddati qay biriga tegishli? Suvgami?, suv idishgami?

Yaroqlilik muddati suv idishiga tegishli.

2. Qaysi mamlakatda saqich chaynash taqiqlangan?

Singapur davlatida.

3. Insonning qaysi tana a'zosi haroratni sezmaydi?

Ko‘zlar.

4. Oyda ya’ni osmondagi oyda jinoyat sodir qilib bo‘lmaydi. Nega?

Oyda shamol bo‘lmaydi. Jinoyat izlarini ochishda barmoq va oyoq izlariga tayaniladi. Shamol bo‘lmagandan so‘ng izlar saqlanib qoladi.

5. Samaliyotdagi “Qora quti” qaysi rangda bo‘ladi?

To‘q sariq rangda


BILIMLAR DARAXTI

“Bilimlar daraxti” metodi orqali o‘quvchi o‘z bilimiga haqiqiy baho berishi mumkin. Bunda o‘quvchilarning har biriga qurigan daraxt tasviri aks etgan rasmlar taqdim qilinadi. Dars jarayonida o‘quvchilarning ishtirokiga ko‘ra ularga daraxtning barglari hamda mevalari berib boriladi. O‘qituvchi tomonidan ilmsiz inson — mevasiz daraxt ekanligi misollar yordamida og‘zaki aytib o‘tilsa, o‘quvchilar faolligini oshirishga erishish mumkin.



Qurigan daraxtning ekologiya va atrof-muhitga hech qanday foydasi bo‘lmaganidek, ilmsiz inson ham jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘sha olmasligi ta’kidlanadi. Dars so‘ngida barcha o‘quvchilar o‘z daraxtlarini namoyish etganlarida,

kim qanday bahoga loyiqiqi yaqqol namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi ham baholashda adashmaydi, qolaversa, vaqtdan unumli foydalaniladi.



Bu metodni o‘tkazishda siz bitta dars mobaynida, butun kun davomida yoki butun hafta davomida tashkil qilishingiz mumkin.

OLTIN MEROS

“Oltin meros” metodidan yuqori sinflarda foydalangan ma’qul. Baholashning bu usulida o‘quvchilarni kichik guruhlariga bo‘lish tavsiya etiladi. Bunda dars davomida hikmatli so‘zlar va maqollarning so‘zlaridan berib boriladi. Qaysi guruh maqol qismlarini to‘liq yig‘sa, o‘sha guruh o‘quvchilari a’lo bahoga munosib bo‘ladi. Guruh ishtirokchilari o‘z jamoalari sharafini munosib himoya qilish uchun bor mahoratini namoyish etishga harakat qiladilar. Bu orqali ularda hamkorlikda ishlash, mas’uliyat, daxldorlik, ajdodlar merosiga hurmat kabi ko‘nikmalar shakllanadi. Maqol va hikmatli so‘zlar mavzuga mos tanlansa, tarbiyaviy maqsaddan ko‘zlangan natija yuqori bo‘ladi.

RANGLAR JILOSI


“Ranglar jilosi” metodida ham o‘quvchilar guruhlariga bo‘linadi. Tashkiliy qismda guruhlariga oq-qora tasvirdagi rasmlar taqdim etiladi. Rasmlar mavzuga aloqador bo‘lishi kerak. Qatnashgan o‘quvchilar ushbu rasmning bir bo‘lagini rangli qalamlar bilan bo‘yaydi. Dars so‘ngiga qadar qaysi guruhning rasmi to‘liq rangli tusga

kirsa, o'sha guruh ishtirokchilari rag'batlantiriladi. Bu orqali o'quvchilarning dars davomida faolligini oshirishga, ularning psixologik holatini ijobiy ruhda ushlab turishga, san'atni sevish, undan ilhomlanish tuyg'ularini rivojlantirishga erishish mumkin. A'lo baho olish har doim o'quvchi uchun yuksak mukofot hisoblangan. Ko'p hollarda darsga tayyor bo'lmagan o'quvchi jarayonni tushkun kayfiyatda o'tkazadi, boz ustiga dars so'ngida "2" baho bilan "taqdirlanadi". Yuqorida tavsiya etib o'tgan metodlarimiz ham aynan bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarni "jonlantirish"ning eng maqbul yechimidir. O'quvchi o'zining bilimiga o'zi haqiqiy bahoni bera olmas ekan, unda hamisha o'qituvchining bahosidan norozilik kayfiyati davom etadi.

QUVNOQ ALIFBO

"Quvnoq alifbo" metodidan asosan boshlang'ich sinflarda foydalanish kutilgan natijani beradi. Bunda o'quvchilarga dars davomida ishtirok etgani uchun alifbo harflari berib boriladi. Agarda o'quvchi harfni o'zi tanlab olsa, dars jarayonidagi faollik yana ham oshishiga erishiladi. Boisi, dars so'ngida o'quvchilar yig'gan harflaridan ma'lum bir so'zni yozishlari talab etiladi. O'quvchi o'zi tanlagan so'zning barcha harflarini yig'ish uchun diqqatini oshiradi va faollikka intiladi. Nechta so'zni to'liq yoza olganliklariga ko'ra baholanadi. Bu metod orqali o'quvchilar bilimini tez, oson va adolatli baholash bilan birga, ularning so'z boyligini oshirishga erishish mumkin.

"Quvnoq alifbo" metodi



Bundan tashqari, ushbu metoddan yuqori sinflarda foydalanilganda, ularga kelajakda o‘zi egallamoqchi bo‘lgan kasbining harflarini yig‘ish vazifasi topshirilsa, o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishga erishiladi.

X va H

Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarga ko‘zlarini yumushlarini va X yoki H harfi bilan boshlangan so‘z aytilganda o‘quvchilar qo‘llari bilan harfini ishora qilgan holda taqdim qilishlari lozim. Bu o‘yin o‘quvchilarning yozma savodxonligini oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari o‘qituvchining kreativligi orqali alifbodagi yana boshqa harflar uchun ham tashkil qilishi mumkin.

DEKODER

“Dekoder” (kodni yechuvchi) metodi har bir o‘quvchi yoki kichik guruhlar uchun quyidagicha topshiriqlar berilishi mumkin. Bunda ishtirokchilarning diqqati, etibori hamda alifboda harflarning joylanish tartibini eslab olishlari uchun xizmat qiladi.

Masalan - Dars mavzusi: 3,4,10,14,3,4,17 12,4,19,14,3,8

Aa	Bb	Dd	Ee	Ff	Gg
Hh	Ii	Jj	Kk	Ll	Mm
Nn	Oo	Pp	Qq	Rr	Ss
Tt	Uu	Vv	Xx	Yy	Zz
O‘o‘	G‘g‘	Shsh	Chch	Ngng	’

Agar bu metod o‘quvchilariigizga qiyinlik qiladigan bo‘lsa, quyidagi she’rni ularga avvalroq yozdating. Quyida berilgan she’r matnida qatnashgan har bir so‘z alifbo tartibida ketma-ketlikda joylashtirib chiqilgan. Bu she’rni yod olgan o‘quvchilarda yuqoridagi singari topshiriqlar berilganda xech qilynalmasdan bajara olish imkonini beradi.

“Alifbo” she’ri

Fahriddin Shodiyev

**Allomalar, Bilimdonlar, Dono Elimda,
Falakpayvand, Gavharmisol Hamon Imda,
Jahongashta Kishilarning Lafzi Maroqli,
Nasihati Oqilligi Pirday Qaroqli.
Ruhiyatning Saboqlari Tubsiz Ummondir,
Vafosizlik Xaqorati Yo‘lsiz Zamondir,
O‘qiganga G‘oliblik Sharafla Chiroy,
Ng alifbodagi misli to‘lin oy.**

SINFDAN VA MAKTABDAN TASHQARI TASHKIL QILINADIGAN AMALIY, SEMINAR VA TRENING-MASHG‘ULOTLARIDA FOYDALANISH

Tadbirlar, o‘yinlarda har xil sohaga oid beriladigan savol va topshiriqlar tadbir tomoshabinlari uchun yaxshi natija beradi.

Sinfdan va maktabdan tashqari tashkil qilinadigan amaliy, seminar va trening-mashg‘ulotlarni o‘tkazishda asosan quyidagi omillar nazarda tutiladi. Jumladan:

- o‘quvchilarga nazariy xarakterdagi bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash va chuqurlashtirishga yordam berish;

- o‘quvchilarga amaliy masalalarni yechishni o‘rgatish, hisob-kitoblar, grafik va boshqa turdagi topshiriqlarni bajarish ko‘nikma va malakalarini egallashga ko‘maklashish;

- kitob, xizmat hujjatlari va diagrammalar bilan ishlashga, ma’lumotnoma va ilmiy adabiyotlardan foydalanishga o‘rgatish;

- fanni o‘rganishga xos bo‘lgan harakatlarni takroriy bajarish orqali ma’ruzada shakllangan aloqalar va assotsiatsiyalarni mustahkamlash (monoton stereotipik takrorlashlar bilimni tushunishga olib kelmaydi);

- mustaqil bilim olish qobiliyatini shakllantirish, ya’ni o‘z-o‘zini o‘rganish, o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z-o‘zini nazorat qilish usullari, usullari va usullarini o‘zlashtirish;

- rivojlanishni ta'minlash ijodiy faoliyat o'quvchining shaxsiyati, uning ilmiy tafakkuri va nutqi; o'quvchilarning ijodiy mehnatkash sifatida o'sishiga yordam berish;
– o'quvchilar bilimini sinash – yetarlicha tezkor fikr bildirish vositasi.

Mashg'ulotlarni tashkil qilishda quyida beriladigan na'munalardan foydalanuvchilar o'zlarining kreativligi bilan ham mashg'ulotlarga yangiliklarni kiritishlari mumkin.

TABIAT HODISASI TOVUSHLARI

Bu amaliy mashg'ulot uchun bizga bir varoq qog'oz (A4 qog'ozi) kerak bo'ladi. Qog'oz ikki tomoni mutlaqo toza yoki ikki tomoni ham ishlatilgan bo'lishi mumkin. Bu amaliy mashg'ulotni ishtirokchilarning hissiy toliqishlarini bartaraf etish uchun, stresslardan qutulish uchun ham foydalanish mumkin. Amaliy mashg'ulot davomida o'tkazuvchi trener tomonidan 5 ta buyruq beriladi va buyruqqa mos harakatlarni bajaradi. Ishtirokchilar ham trnerning buyruq va harakatlarini trener bilan baravariga bajarishadi. Bu mashg'ulot davomida barcha ishtirokchilar qog'ozdan chiqarotgan tovushlarni tinglagan holda bajarishlari lozim bo'ladi. Ya'niy qog'ozdan chiqayotgan tovushlar tabiatda sodir bo'ladigan tabiiy tovushlar juda yaqin bo'lganligi sababli inson yanada ruhiy jihatdan yengillashadi.

Bu mashg'ulot quyidagicha tartibda bajariladi.

1. Shamol (bunda qog'ozlar yengil silkitiladi).



2. Chaqmoq (qog‘ozni ikki tomonidan qarama qarshi tomonlariga qarab yaqinlashtirib-uzoqlashtirib tortiladi va qog‘ozdan qarsillagan tovush chiqadi).



3. Jala (qog‘oz yirtiladi, 2, 3, 4, 5 bo‘laklarga bo‘linguncha yirtiladi).



4. Yomg‘ir (yirtilgan qog‘ozlar yumaloqlanadi, ya’niy g‘ijimlana boshlanadi va koptokcha shakliga kelguncha bu harakat davom etadi).





5. Qor bo‘roni (koptokcha shakliga keltirilgan qog‘ozlar istalgan tomonga qarab, faqat bir tomonga qarab yoki osmonga qarab uloqtiriladi).



Ishtirokchilar soni nechta bo‘lishidan qat’iy nazar bu mashqni bajarish uchun 1 yoki 3 daqida yetarli bo‘ladi. Agar sizda vaqt ortib qoladigan bo‘lsa, ushbu mashg‘ulot haqida ishtirokchilarning ba’zilaridan shaxsiy fikrlarini so‘rab, jamoa bilan tinglashingiz mumkin.

ATOM VA MOLEKULA



Bu mashg‘ulotni sinf xonasida yoki ochiq hovlida ham tashkil qilsa bo‘ladi. Mashg‘ulotni boshlashda barcha ishtirokchilar o‘rnilaridan turadi va trener (o‘qituvchi) o‘yin qoidalari bilan ishtirokchilarni tanishtiradi. Ishtirokchilarga o‘zlarini Atom ya’ni bitta zarra deb tasavvur qilishlarini aytadi. O‘yinni boshida barcha ishtirokchilar Atom (lar) holatida bo‘ladi. Trener ishtirokchilarga Atom holatida xona bo‘ylab erkin harakat qilishlari mumkinligi bo‘yicha buyruq beradi. Shundan so‘ng

ishtirokchilar xona bo‘ylab harakatlanishni boshlaydi. Ishtirokchilar xona bo‘ylab harakatlanish vaqtida trener ularga dars mashg‘ulotida berilgan ma’lumotlarni qanchalik o‘zlashtirganligini aniqlash maqsadida ularga bir nechta savollarni ketma-ketlikda berib boraveradi va tasodifan istalgan raqamni va Molekula so‘zini aytadi. Masalan: To‘rttalik molekula. Shunda barcha ishtirokchilar to‘rttalik guruhchalarga birlashib oladilar. Qaysi guruhlar to‘rttalik bo‘la olmagan bo‘lsa yoki aytilgan sondan oshib ketgan guruh va guruh a‘zolari o‘yindan chetlashtiriladi. Keyin yana trener tomonidan ishtirokchilarga datlabki holat ya’ni Atom holatiga qaytishlari haqida buyruq beriladi. O‘yin shu tariqa davom ettiriladi.

Bu o‘yinni o‘tkazish uchun 5-8 daqiqa yetarli (vaqt taqsimotida hamda ishtirokchilarning soni muhim hisoblanadi). Agar sizda vaqt ortib qolsa yoki vaqtingiz yetarlicha bo‘lsa, ushbu o‘yin haqida ishtirokchilarning ba’zilaridan shaxsiy fikrlarini so‘rab, jamoa bilan tinglashingiz mumkin.


NOMLI YO‘LAKLAR

Bu amaliy mashg‘ulotda rangli qog‘ozlarga eng yaxshi so‘zlar yoziladi va qog‘ozlar bo‘ylab to‘g‘ri chiqib qo‘yladi. Bu o‘yinda ishtirok etuvchilar o‘zlarining xohishlariga ko‘ra nomli yo‘laklarni tanlashadi. Ishtirokchi yo‘lak bo‘ylab yurib o‘tayotganda shu yo‘lak nomiga mos o‘zdagi sifatlarni aytib o‘tishi lozim bo‘ladi. Ishtirokchilar yo‘lak bo‘ylab yurib o‘tayotganda har birlarining fikrlari jamoa tomonidan tinglanadi va yo‘lakni yurib o‘tgan ishtirokchi olqishlar bilan o‘yindan kuzatib qo‘yiladi. O‘yin shu tariqa davom etadi.

Nomli yo‘laklar uchun quyidagicha nomlardan foydalanishingiz mumkin.

1. Baxtliman.
2. Qobiliyatliman.
3. Mehribon singilman.
4. G‘amxo‘r akaman.
5. Boyman.
6. Betakorman.
7. Aqlliman.
8. Go‘zalman.
9. Kamtarinman.


10. Donoman.
11. Chiroyliman.
12. Omadliman.



Bu mashqni bajarish uchun ishtirokchilarning soniga ko‘ra vaqtni taqsimlab olishingiz mumkin. Bir ishtirokchi uchun 30 soniya yetarli bo‘ladi.

ODAM SHAKLI

Bu amaliy mashg‘ulot uchun 1 ta varoq kerak bo‘ladi. Ishtirokchilarga o‘zlarining daftar (blaknot)laridan bir varoq yirtib olishlari aytiladi. Keyin esa shu varoqdan yirtish usuli bilan butun odam shaklini chiqarishlari aytiladi.



Bu mashqni bajarish uchun 1 daqiqa yetarli. Agar sizda vaqt ortib qolsa yoki vaqtingiz yetarlicha bo'lsa, ushbu mashg'ulot haqida ishtirokchilarning ba'zilaridan shaxsiy fikrlarini so'rab, jamoa bilan tinglashingiz mumkin.

SO'Z TUZAMIZ

Topshiriqlar: Quyida berilgan harflardan bir marotaba foydalanish orqali so'zlar tuzing: a, b, g, s, m, o, l, i, k, n.

Masalan: Malik, gilos, Ali, bol, soli, salom, ilm, nom, kamon, samo, nola, Kamol, likob, kosa, kabi, ona, limon, aslo, alik, logika, olma, mol, bola, kim, olam, gol, lom, bos, nos, nokas, ilon, nim, ol, olis, sol, bil, mos, kasb, makon, nol, sim, mis, son, gilam, Salim, nok, gilos, kon, Olim, albom, ol, gol, kino, kal, lak, il, sil, min, man, on, noma, in, imkon, Olima, lab, dol, nola, ilk, mas, ibo, Islom, bino, balo, sok, kam, Komil, imlo, nom, balo, igna, ola, olib, bal, lab, kilo, mil, asl, bosim, oling, libos, in, ism, ibo, ma'no, Nabi, Nasim, a'lo, kasb, libos, os, Amon, login, milk, san, bong, ola, Molik, nam, sabo,

Bu mashqni bajarish uchun 1-2 daqiqa yetarli. Agar sizda vaqt ortib qolsa yoki vaqtingiz yetarlicha bo'lsa, ushbu mashg'ulot haqida ishtirokchilarning ba'zilarida shaxsiy fikrlarini so'rab, jamoa bilan tinglashingiz mumkin.

ANOGRAMMA

Anogrammalar. Quyida jadvalda berilgan harflar o'rnini o'zgartirib, yangi so'zlarni hosil qiling.

olba		matxash	
zon		avara	
alo		luk	

tus		lak	
quvot		muzu	
qamal		xumut	
almo		lom	
chara		ozg‘oq	
mik		roq	
vus		tik	
etti		uzt	
ariq		kulm	
iltak		amin	
hamr		tro‘t	
naxlug		ayos	
aku		armoqb	
nos		rakash	
roq		sosma	
orid		talak	
ullam		xray	

Bu mashqni bajarish uchun 1-2 daqiqa yetarli. Agar sizda vaqt ortib qolsa yoki vaqtingiz yetarlicha bo‘lsa, ushbu mashg‘ulot haqida ishtirokchilarning ba’zilarida shaxsiy fikrlarini so‘rab, jamoa bilan tinglashingiz mumkin.

SIZ KREATIVMISIZ?

Bu mashg‘ulotda shunday topshiriq beriladiki siz quyidagi mavzu uchun kerakli masalliqalar lozim bo‘lishini tuzishingiz kerak. Masalan: Omad, Baxt, Do‘stlik, sog‘lik va hokazo (ishtirokchilarning yoshi, qiziqishi va umumiy holatlariga ko‘ra mavzu tanlash mumkin).

Omada.

-sog‘lik 500 gr

-pul 500 gr

- vaqt 200 gr
- bilim 500 gr
- harakat 800 gr
- do‘stlik 200 gr
- tinchlik 100 gr
- birdamlik 100 gr
- e’tiborlilik 100 gr
- kirishimlilik 100 gr.

PANTOMIMIKA

Ushbu o‘yinda yakka yoki guruhlar bo‘lingan holda tashlik qilish mumkin. U o‘yin o‘rqali o‘quvchilarda fikrlash, kreativlik hamda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan muammolarni sharoitdan kelib chiqqan holda yecha olish imkoniyatini beradigan ko‘nikma shakllanish uchun xizmat qiladi.

Sizga quyida namunada berilgan vaziyatlarni so‘zsiz imo-ishora orqali izohlashingiz kerak.

- yig‘layotgan bola;
- alla aytayotgan bola;
- qorni og‘rib qolgan holat;
- sho‘r ovqat yeb qo‘ygan inson;
- katta pul topib olgan inson;
- ishdan qochayotgan ishchi xodim;
- ikki baho olgan bola;
- shirinligini ukase yeb qo‘ygan qizaloq;

Bu o‘yinni bajarish uchun 5-10 daqiqa yetarli. Vaziyatlarni tanlashda ishtirokchilarning Yoshi, qiziqishlari va xarakter temperamentlariga aholida e’tibor qaratish kerak. Shunda bu o‘yin yanada qiziqarli va ishtirokchilar uchun zavqli bo‘ladi. Agar sizda vaqt ortib qolsa yoki vaqtingiz yetarlicha bo‘lsa, ushbu mashg‘ulot haqida ishtirokchilarning ba’zilaridan shaxsiy fikrlarini so‘rab, jamoa bilan tinglashingiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993
2. Allabergenov A.A., Akovbyans Ye.R. va boshqalar. Kasb etikasi va psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Cho‘pon nomidagi nashriyat-matbaa ijodiy uyi”, 2007. -118 b.
3. Mamatqulov A.N. Bo‘lajak kasb ta‘limi o‘qituvchilarining ijodkorligini rivojlantirish orqali kasbiy faoliyatga tayyorlashning o‘ziga xos xususiyatlari. Zamonaviy ta‘lim ilmiy-amaliy ommabop jurnal. №1 (86) 2020 yil. 35-41 bb.
4. Mardonov G‘. Noan‘anaviy usulda ota-onalar majlisini o‘tkazish. “Ta‘limda texnologiyalar: tajriba almashish va strategiyalarni belgilash” mavzusidagi tinglovchilar konferensiyasi materiallari. I-qism. Samarqand 2019 155-158 bb.
5. Mavlonova R., Voxidova N., Raxmonqulova N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. -T.: “Fan texnologiya”, 464 b.
6. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.X. va boshqalar. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik. – T.: “O‘qituvchi”, 2014. -144 b.
7. Pedagogik atamalar lug‘ati T.: 2019 –B 116.
8. Xasanova K. Talaba yoshlarni oilaviy munosabatga tayyorlashning pedagogik asoslari. O‘quv qo‘llanma. – T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2019. – 168 b.
9. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Psixologiya fanlarini o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Aloqachi”, 2007. –B. 176. 17-18 b.
10. Гетманова А. Логика. – М.: Владос, 1998.
11. Григорьев Б. Классическая логика. – М.: Владос, 1996.
12. Rahimov I. Logika. – T.: O‘qituvchi, 1980.
13. Rahimov I. Logikadan amaliy mashg‘ulotlar va metodik tavsiyalar. – T.: O‘qituvchi, 1988.
14. Yangi va eng yangi davr G‘arbiy Yevropa falsafasi. – T.: Sharq, 2002.
15. O‘rinboev B., Soliev A. Notqlik mahorati. – T.: O‘qituvchi, 1984
16. O‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan lavhalar. Akademik M.Xayrullaev tahriri ostida. – T.: Fan, 1995

D.J.NURMANOVA

Tetiklashtiruvchi o‘yinlar
(Boshlang‘ich ta’limda va barcha turdagi
o‘quv mashg‘ulotlari uchun)

USLUBIY KO‘RSATMA

“Bilig ilmiy faoliyat” nashriyoti

Muharrir: Fayzullayeva G.
Texnik muharrir: Xujakulov Sh.
Nashrga tayyorlovchi: Abdullayev F.



№ 098355

“Bilig ilmiy faoliyat” nashriyoti,
Joylashgan mazili Samarqand viloyati, Samarqand shahar,
Zavod ko‘chasi 9-uy, 10-xona. Faoliyat manzili Samarqand viloyati, Samarqand shahar,
X.Obiddinov ko‘chasi 7-uy.
tel.: +998 97-925-97-91

Terishga berildi: 11.10.2023-yil. Bosishga ruxsat etildi: 16.10.2023-yil.

Bichimi 60x84^{1/16}, “Times New Roman” garniturasida.

Bosma tabog‘i 2. Adadi 30 nusxa. Buyurtma № 2023/UK5

Bahosi kelishilgan narxda

Noshirlik litsenziyasi: № 098355

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish
milliy markazi bosmaxonasida nashr etildi